

RAVISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti
O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ravish so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlarini o'r ganamiz, misollar orqali bilib olamiz.

Kalit so'zlar: holat ravishi, payt ravishi, o'rin ravishi, ravish, mustaqil so'z turkumlari.

Asosiy harakatning qisman predmetning belgi, miqdor, holatlarini bildirib keladigan mustaqil so'z turkumlarning birisiga ravish deyiladi. Ravishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'zgarmas so'z turkumi hisoblanadi unga so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shib o'zgartirib bilmaymiz. Ravishning tarkibida kelishik qo'shimchalari -ga, -dan, III shaxs birlik-i (si) ko'plik qo'shimchalari yopishib qolgan holatlar mavjud: to'satdan, birdan, qo'qisdan kechasi, kunduzi, avvallari, kechalari kabi bu shakkardagi qo'shimchalarni asosdan ajratib tahlil qilmaymiz. Yaxshi uqlab turdingmi, kechasi kelsam, uqlab qolgan ekansan. Qo'yinglar, – dedi Ro'zmat, janjalning oldini olmoqchi bo'lib, – bu gapni kunduzi gaplashinglar. Hali mashinaning qorasi ko'zdan o'chmasdan, birdan ikki samolyot pastladi. G'o'zalar yerda to'rt enlik ko'tarilib, dala bo'ylab ko'm-ko'k chiziqlar ko'zni quvontirganda, bir vaqt, to'sindan havo aynidi. Boshimga birov to'satdan katta bir kaltak bilan urgandek bo'ldi.

V.V. Vinogradov "Mustaqil so'zning hech bir guruhiha sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan" deb haqqoniy baho bergan edi. Ravish holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, maqsad, sabab kabi guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Sifat kabi ravishni ham ma'no turiga ajratish nisbiy. Chunki ko'chma ma'noda qo'llangan ravish bir ma'no turidan boshqasiga o'tib ketadi: Ishxonamiz yaqinda joylashgan - o'rin ravishi. Yaqinda qishloqqa boraman-payt ravishi. Partalarni nari-beri surdik - o'rin ravishi. U nari-beri dars qildi-holat ravishi.

Payt ravishi harakatning qaysi paytda bajarilganini bildiradi. Payt ravishi asosan gapda hol va kesim vazifasida keladi. Ertalab, saharlab, doim, indin, endi so'zları kiradi. Ayol tong saharlab junjikib uyg'onib ketdi, osmon oqarib ketgandi. U bu xabarni ertaga ertalab qaysi yo'sin bilan bekka bildirish yo'llarini o'ylar edi. U doim menga seni eslatib turadi. Direktorimiz erta bor, indin bor, deb ishni keyinga surib yubordilar. Qani endi hayotdagi sanoqsiz ehtimollarning barisiga javob topish mumkin bo'lsa. Bugunning hakami ertadir.

Holat ravishi (tarz-tus) ravishi deb ham yuritiladi. Holat ravishi harakatning bajarilish tarzi va holatini bildiradi. Bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitlarcha so‘zlari holat ravishiga misol bo‘la oladi. Nazokat *bexosdan* berilgan bu so‘roqqa javob berishga o‘ng‘aysizlanib, uzoqda sarg‘ayib turgan adirlarga tikildi. *Astoydil* kuyib gapirayotgan mehmon, Hakimjonning ko‘zi uyquga ketganidan keyingina so‘zdan to‘xtadi. Arabboy ko‘pchilik kulgisidan bir oz izza tortdi. Lekin u ba’zi birovlarday kulguga *majburan* taslim bo‘lib iljaymadi. Mulla Turob bilan Mulla Bozor o‘limga qarab *mardlarcha* bormoqda edilar.

Miqdor-daraja ravishi ko‘plab, sal, qarich-qarich, arang, xiyol, yana kabi ravishlar misol bo‘ladi. Bunday dalillarni, kerak bo‘lsa, juda *ko‘plab* topishimiz va yozishimiz mumkin. Badalbek *sal* narsaga zarda qiladigan, *sal* narsaga arazlaydigan qiliq chiqardi. Bugun yomg‘ir kechagidan *xiyol* oz yog‘di. Bir nafas o‘ylab, *yana* uch so‘mlik qog‘oz va bir so‘lkavoy qo‘shib, Yo‘Ichiga tashladi.

Maqsad ravishi atay, atayin, ataylab, azza-bazza, jo‘rttaga, qasddan. Orombaxsh, salqin bog‘da sayr etib yurgan ikki yosh yurak bu safar ham tunda ushshriga *atayin* piyoda jo‘nashdi. Men jo‘rttaga ba’zi gaplarni teskarilikka olib ko‘rsam ham, Zaynab churq etmaydir.

Sabab ravishi noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor. Administrator *noiloj* direktor kabinetiga kirib, bo‘lgan voqeani aytib berdi. Alijon yana yalingandek bo‘ldi, – xudo haqqi, *noilojlikdan* keldim. Mo‘minlar, nega qarab turibsiz, bu shaytonbachcha bitta avliyo odamni bekordan-bekorga o‘ldirib keta beradimi?

O‘rin ravishi olg‘a, ichkari, nari, uzoqdan, olisda, yuqorida, pastda. Qani, olg‘a, g‘alaba arslonlari! Qani, olg‘a, vatan qahramonlari. Maryamxon o‘n to‘qqiz yoshida, bundan sakkiz-to‘qqiz yil ilgari bu uyga, musulmon “ichkarisiga” qamalgan. Safarov tugagan papirochning cho‘g‘idan ikkinchisini tutatib olib, *nari-beri* yurdi. Katta yer *yuqorida*, shu yerdan bir soat mo‘lroq yurasiz, u yerda nuqlu paxta unadi.

Ot so‘z turkumini aynan takrorlasak ravish so‘z turkumi hosil qilinadi. Bugun *chelak-chelak* yomg‘ir yog‘di. Ravish so‘z turkumini yasovchi qo‘sishimchalar mavjud: -cha, -dek, -day, -siga, -lab, -incha, -namo, -larcha, -ona, -an, -lay. Boshqacha, qushday, o‘qdek, yoppasiga, ertalab, ko‘pincha, uyalgannamo, mardlarcha, mardona, majburan, butun/lay. -larcha bilan -lar affaksi omonimlik hosil qiladi. Sonlarga qo‘silsa lug‘aviy shakl yasovchi sondan boshqa so‘zlarga qo‘silsa ravish yasovchi qo‘sishimcha hisoblanadi.

Ravish tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Sodda ravishlarga misol qilib, erta, indoin, bugun, hozir, yana so‘zlarini olishimiz mumkin. Qo‘shma ravishlarning o‘zini uch guruhga bo‘lib o‘rganamiz.

Juft, qo'shma, takroriy ravishlar. Juft ravishlar ikki so'zni juftlash orqali hosil qilinadi: qishin-yozin uzil-kesil, ura-sura. Qo'shma ravishlar birdan ortiq mustaqil so'zlarning qo'shilishidan hosil qilinadi: bir yo'la, bir muncha, bir talay. Takroriy ravishlar esa bir o'zakning takrorlanishi orqali hosil qilinadi: o'qtin-o'qtin, ahyon-ahyonda.

Tilshunosligimizda ravish yasalishi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi-asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunoslardan ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi. Yuqorida sanab o'tilgan ravishlar tarkibiga diqqat qilinsa, ularda turli so'z yasash qolipi mavjudligi ma'lum bo'ladi: arabcha ot+an, ot+chasiga, ot+ona, ot+larcha, ot+lab kabi. Qo'shma ravish esa olmosh+ot (har gal, har zamon), ravish+ot (hali zamon, hali beri), son+ot (bir yo'la, bir dam) qolipi mahsuli. Boshqa turkumdagi takroriy so'z ravish bo'lishi mumkin: yuzma-yuz, quruqdan-quruq kabi. Tilshunoslardan ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini -an, -ona qo'shimchasining arabcha va tojikcha so'z tarkibida uchrashini, -larcha, -chasiga, -lab kabining grammatik ma'no ifodalashi bilan va -iga/siga, -chasiga kabi so'zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydi. Ravish gapda ko'pincha fe'lga bog'lanib hol, otga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi.¹ Ravish boshqa so'zga bitishuv yo'li bilan birikadi. Ravish so'z turkumi biz uchun juda ham zarur bo'lgan mustaqil so'z turkumlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005
2. Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish
3. Rahmatullayev Sh O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati Toshkent-1984
4. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili toshkent-2006
5. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abduzalova M Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
6. Mengliyev B Xoliyorov O' O'zbe tilidan universal qo'llanma Toshkent-2008

¹ Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abduzalova M Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.